



## THE LETTER MOVEMENT IN THE EPOCH OF RUSTAMKHON

**Boltayeva Iroda**

2nd year student of the Uzbek language and literature department of the Faculty of Turkic Languages of the Nukus State Pedagogical Institute

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15181328>

### ARTICLE INFO

Received: 03<sup>rd</sup> April 2025

Accepted: 08<sup>th</sup> April 2025

Online: 09<sup>th</sup> April 2025

### KEYWORDS

*Epic, letter motif, drunken old woman, Kurudim country, intimates, slander, evil deed.*

### ABSTRACT

*This article analyzes the significance of the letter motif in the plot of the epic "Rustamkhon". This letter, written by contemporaries, appears in the epic as a means of deceiving Sultankhan and slandering Khuraim. The content of the letter and its impact on the fate of the heroes are studied, and it is analyzed as a key factor in the development of the plot. The role of the letter motif in the epic in the traditional literary method is also highlighted.*

## RUSTAMXON DOSTONIDA XAT MOTIVI

**Boltayeva Iroda**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti o'zbek tili va asabiyoti 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15181328>

### ARTICLE INFO

Received: 03<sup>rd</sup> April 2025

Accepted: 08<sup>th</sup> April 2025

Online: 09<sup>th</sup> April 2025

### KEYWORDS

*Doston, xat mativi, maston kampir, Qurudim mamlakati, mahramlar, tuhmat, qabohat.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada "Rustamxon" dostoni syujetidagi xat motivining ahamiyati tahlil qilinadi. Dostonda kundoshlar tomonidan yozdirilgan bu xat Sultonxonni aldash va Xuroyimni yomonotliq qilish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Xatning mazmuni va uning qahramonlar taqdiriga ta'siri o'rganilib, u syujetni rivojlantirishdagi kalit omil sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, dostondagi xat motivining an'anaviy adabiy usuldagi o'rni ham yoritiladi.*

Doston – xalq og'zaki ijodining eng yirik janri bo'lib, u qahramonlik, ishqiy-sarguzasht, fantastik mazmunga ega bo'lgan voqealarni bayon qiluvchi asar.<sup>1</sup> Xalq og'zaki ijodidagi "Alpomish" qahramonlik dostoni bo'lsa, "Go'ro'g'li", "Ravshan", "Oshiq g'arib va Shohsanam" kabilar bilan bir qatorda "Rustamxon" dostoni ham ishqiy-sarguzasht dostonlar sirasiga kiradi. Ushbu doston 1937-yilda baxshi Fozil Yo'ldosh o'g'li tilidan Hodi Zarif yozib olgan. Doston voqealari Oqtosh viloyatida sodir bo'ladi. Asosan, an'anaviy ravishda dostonar farzandsizlik mativi bilan boshlanganidek, ushbu doston ham farzandsizlik mativi bilan boshlanadi. "Rustamxon" bosh qahramonlari Sultonxon, Huroyim va kundoshlari, Momagul maston va boshqalar.

<sup>1</sup> 10-sinf adabiyot darsligi Toshkent-2017 26-bet



Oqtosh viloyati podshosi Sul-tonxonning uchta xotini bo'lsa ham befarzand edi. Uning yoshi o'tib, soqoli oqarib qolganida Huroyim degan xotini homilador bo'ladi va oy kuni yaqinlashganida Sul-tonxon Qurudumga ketishining sababi bir tush ko'radi: "O, sen Qurudum mamlakatiga safar qilsang, o'n to'rt yil deganda borib kelsang, shunda Xudo bergan farzanding turadi, bo'lmasa nobud bo'ladi".<sup>2</sup> Shu voqeadan keyin doston syujeti rivojlanib boradi. Yuqorida aytilganidek, U o'n to'rt yildan keyin qaytishi kerak edi. Bu vaqt mamlakat boshqaruvi maslahatlashilgan holda Huroyimga qoldiriladi. Huroyim yurtni juda ham a'lo darajada boshqaradi. Hasadgo'y kundoshlar maslahatlashib, uni bundan mahrum mahrum qilish payiga tushadilar va Oqtoshdagi jodugar uch yuz mastoni mastoni bo'lgan Momagul mastonni ishga soladilar. Hattoki, unga to'rt qop tilla berishadi va Huroyim ustidan bir arznoma yozdirishadi. Momagul maston bu ishni Ko'yiston mamlakatidan kelgan to'rt mullaga topshiradi. Sul-tonxonga yo'llangan maktub quyidagi jumlar bilan boshlanadi:

Oqtosh elda Huroyim qurisin,  
Tul badani qora yerda churisin,  
Ergashtirdi yoshi bilan qarisin,  
Yig'ib oldi yigitlarning barisin!  
Ko'chalarda quloch urib yuradi,  
Oqtoshning shahrini shunday bulg'adi,  
Mehmonxonalarda bazm beradi,  
Chiroq o'chirib hamsha o'ynab-kuladi<sup>3</sup>.

Xatda qattiq qoralov mavjud. Bu misralarda Huroyim haqidagi haqiqat bilan bog'liq bo'lmagan, g'arazli ig'vo va tuhmat ustunlik qiladi, go'yo u shaharni buzib, yoshi-qari demay hammani yo'ldan urgan kimsadek tasvirlanadi. Misralar xalq orasida aytiladigan tanqidiy yoki hajviy ruhdagi she'rga o'xshab ketadi. Unda Huroyimning qilmagan ishlari tasvirlanib, uning shafqatsizligi va axloqiy tubanligi ifodalangan.

Sul-tonxonning yuzin tuban qiladi,  
Poshsho qilgan xotining shunday qiladi.  
Qay betiman sulton elga keladi.  
Ko'ringan yigitni qaytarib olib,  
Kim bo'lsa, qo'lini bo'yniga solib,  
Poshshoyim huroyim yoring qursin,  
Oqtosh shahring ketdi bari bulg'onib.  
Sul-tonxon, bul ishdan o'zing bexabar,  
Huroyim ko'nglida buzuqchilik bor,  
Katta-kichik shohning holiga kular,  
Huroyimning elda anima ishi bor!<sup>4</sup>

Hukmdorlar va nufuzli shaxslar tarix davomida turli maqsadlarga xizmat qiluvchi xatlar orqali yo'naltirilgan, chalg'itilgan yoki sinovga tutilgan. Sul-tonxonga yo'llangan ushbu maktub ham aynan shunday yo'sinda shakllangan bo'lib, unda shaxsiy manfaatlar, gumon va beqarorlik urug'larini ekish niyati yaqqol seziladi. Maktub mualliflari Sul-tonxonni

<sup>2</sup> "Rustamxon" dostoni Toshkent-2021 5-bet

<sup>3</sup> "Rustamxon" dostoni T-2021 19-bet

<sup>4</sup> "Rustamxon" dostoni 19-bet



o'ylantiruvchi, unga shubha uyg'otuvchi ohangda yozgan. "Sultonxon, bul ishdan o'zing bexabar, Huroyim ko'nglida buzuqchilik bor" degan jumlada aynan ushbu taktika yaqqol namoyon bo'ladi. So'zlarning ohangidan shunday taassurot uyg'onadiki, yozuvchilar voqealarning mohiyatini o'z nuqtayi nazarlaridan kelib chiqib talqin qilgan va hukmdorni tashvishga solishga harakat qilgan. Maktubda ishlatilgan "Oqtosh shahring ketdi bari bulg'onib" iborasi esa voqealar ataylab keskin tusda tasvirlanganidan dalolat beradi. Xat mualliflari hukmdorning his-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazish, uni zudlik bilan chora ko'rishga undashga uringan. Beqarorlik haqidagi ta'kidlar esa uning qarorlariga ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida xizmat qilgan.

Arizada Huroyimning axloqsiz harakatlar qilayotgani haqida gapiriladi. "Ko'ringan yigitni qaytarib olib, kim bo'lsa, qo'lini bo'yniga solib" degan jumlar bilan uni begona erkaklar bilan aloqada bo'layotganday tasvirlashga harakat qilingan. Ammo bu gaplar hech qanday dalilga asoslanmagan bo'lib, fitna va hasad tufayli o'ylab topilgan. Shuningdek, xatda shaharning "bulg'onib" ketgani, ya'ni notinch bo'lgani aytiladi. Bu bilan tuhmatchilar Huroyimni nafaqat shaxsiy, balki siyosiy jihatdan ham zararli qilib ko'rsatishga uringanlar. Biroq, aslida Huroyim mamlakatni adolat bilan boshqarayotgan edi. Yana xatda "Huroyimning elda anima ishi bor!" deb ta'kidlanadi, ya'ni uni jamiyat oldida obro'siz qilishga harakat qilinadi. Bu gapni aytuvchilar Huroyimning asl nufuzidan qo'rqib, uni siyosiy va ijtimoiy sahnadan chetlatishga harakat qilganlar. Bu xat Huroyimning sulton oldidagi mavqeini tushirish va uni aybsiz bo'lsa ham jazoga tortish maqsadida yozilgan bo'lib, undagi da'volar hasad va siyosiy fitna natijasi ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi.

Atrofida alvon-alvon yigitlar,  
Shunday qilib elda davronin surar,  
Nima qilsa Huroyimda ixtiyor,  
Yurt bulg'andi, shohim, qanday gap bo'lar?  
Huroyiming yomonligin ko'rsatib,  
Bul arzani bitayotir mullalar.  
Necha so'zni bunda kampir amr etti,  
Qo'l bostim qib necha xulq-u-elotti(ni)  
Bul ishlardan xabari yo'qti,  
Shunday qilib, mulla arza xat bitti.<sup>5</sup>

Bu azira xatini Momagul mastonning o'zi Sultonxonga yetkazadi. U bu ig'volarni o'qib ko'rgach, jallodlarga Huroyimni boshini kesib, Mansur doriga osishlarini buyuradi. Bu xat Huroyimni ko'rolmagan kundoshlarining va maston kampirning fitnasi edi, baxtga qarshi ularning niyati amalga oshmay qoladi. Huroyimni Mansur doriga olib borishganida aqlbovar qilmaydigan ish sodir bo'ladi. Ya'ni Huroyim dorga: "...Mana men! Meni ham tuhmat bilan senga osishga yuborgan (huddi Mansur kabi demoqchi). Meni qumsab turgan bo'lsang men tayyor!"<sup>6</sup> – deganidan keyin, dor tuhmatdan hazar qilib, o'rnidan qo'zg'alib ko'tariladi. Jallodlar Huroyimning bo'yniga sirtmoq solib dorga tortishga urinishadi lekin dor ko'tarilib ketganidan arqonning uchi yetmay qoladi, jallodlar nima qilishni bilmay qolishadi. Rustamdan

<sup>5</sup> "Rustamxon" dostoni Toshkent-2021 19-bet

<sup>6</sup> "Rustamxon" dostoni Toshkent-2021 56-bet



oldin ikki tozi it jallodlarning qo'lidagi arqonni tishlab tortib olishadi. Rustamxon yetib keladi va ularning dodini berib, onasini qutqarganidan keyin, "Adashganning oldi - yo'l" - deb boshi oqqan tomonga ketishadi. Xuddi mana shu tartibda doston voqealari davom ettiriladi.

Har bir badiiy asar yoki dostonida uning syujet halqasini tashkil etuvchi motivlar bo'ladi. Qaysidir ma'noda ular ham voqealar rivoji uchun muhim hisoblanadi. Yuqoridagi misol esa buning yaqqol isboti edi. Rustamxon dostonida aks etgan xat motivi ham syujetning halqasi bo'lib hizmat qilgan. Xat har bir asarda o'ziga xos ahamiyatga egadir. Boshqa dostonlardagi xatlardan farqli o'laroq bu xat doston bosh qahromoniga fitna hamda uni ko'ra olmaslik natijasida yozilgan bo'lsa ham ular o'z maqsadiga yeta olishmaydi. Doston oxirida Huroyim va o'g'li Sultonxon bilan topishishadi va barchasi yaxshilik bilan tugallanadi.

### References:

1. "Rustamxon" dostoni. Toshkent-2021
2. M. Jo'rayev, J. Eshonqulov Folklorshunoslikka kirish. Toshkent-2017
3. Omonilla Madayev, Tojixon Sobitova Xalq og'zaki poetik ijodi T-2010
4. T. Mirzayev, Sh. Turdimov, M. Jo'rayev, J. Eshonqulov, A. Tilavov O'zbek Folklori. Toshkent-2021
5. Oxunjon Safarov O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent-2010